



UDK: 378.180.6:378(045)

Hulkar RASULOVA,
QarshiDU tayanch doktranti
E-mail: hulkar_rasulova@mail.ru

QarDU professori N.Oripova taqrizi asosida

VITAGEN TA'LIM ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH: METODIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida vitagen ta'lim asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslari va amaliy mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqotda vitagen ta'limning nazariy jihatlarini, uning ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, ushbu yo'nalishda samarali metodikalarni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada vitagen yondashuvning psixologik-pedagogik imkoniyatlari, talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Vitagen ta'lim, ijtimoiy kompetentlik, metodika, ta'lim texnologiyalari, shaxsni rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalar.

DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN STUDENTS BASED ON VITAGEN EDUCATION: METHODOLOGICAL APPROACHES

Annotation

This article studies the methodological foundations and practical mechanisms of developing students' social competence based on vitagenic education in the modern educational process. The study covers the theoretical aspects of vitagenic education, its role in the formation of social competence, as well as issues of improving effective methodologies in this area. The article analyzes the psychological and pedagogical potential of the vitagenic approach, its importance in the personal and professional development of students.

Keywords: Vitagenic education, social competence, methodology, educational technologies, personal development, pedagogical innovations.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ВИТАГЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В статье рассматриваются методологические основы и практические механизмы развития социальной компетентности студентов на основе витагенного образования в современном образовательном процессе. В статье рассматриваются теоретические аспекты витагенного образования, его роль в формировании социальной компетентности, а также вопросы совершенствования эффективных методик в данной области. Анализируется психолого-педагогический потенциал витагенного подхода, его значение в личностном и профессиональном развитии студентов.

Ключевые слова: Витагенное образование, социальная компетентность, методология, образовательные технологии, личностное развитие, педагогические инновации.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta'limning vazifasi nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularni murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat. Ijtimoiy kompetentlik – bu shaxsning turli ijtimoiy situatsiyalarda o'zini yetarli darajada tutish, boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish, ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida ta'riflanadi.

Professor A.S.Belkin o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek: “Vitagen ta'lim insonning turmush davomida to'plagan hayotiy tajribasini tizimli ravishda shakllantirish va undan samarali foydalanishga qaratilgan pedagogik jarayondir” (Belkin, 2000). Ushbu ta'lim yondashuvi talabalarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning hayotiy kompetentliklarini ham rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi vitagen ta'lim asosida talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Vitagen ta'lim (lotincha “vita” – hayot, “genesis” – kelib chiqish) insonning hayotiy tajribasini tizimli ravishda shakllantirish va undan samarali foydalanishga qaratilgan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu kontsepsiya asosan A.S.Belkin tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim jarayonida shaxsning subyektiv tajribasini hisobga olishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik olim M.Usmonboyeva o'z tadqiqotlarida shunday deydi: “Vitagen yondashuv ta'limda an'anaviy yondashuvlarni yangilash, ta'lim mazmuni va metodlarini shaxsning hayotiy ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatini beradi” (Usmonboyeva, 2021).

T.G.Pushkarevaning asarlarida shaxsning ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari bo'lgan ijtimoiy bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni o'zlashtirish

zarurligi tasdiqlangan.

Ilmii adabiyotlarni tahlil qilish bizga universitet talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy va pedagogik shartlarini aniqlashga imkon berdi:

(o'quv fanlari mazmunining uzluksizligi va uzviyligi tamoyillariga rioya qilish, ijtimoiy-gumanitar tarkibiy qismni kuchaytirish;

(ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda amaliyotga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash;

(auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar amaliyotini kuchaytirish, madaniy va hordiq chiqarish shakllarini kengaytirish;

(talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini maqsadli hamda tizimli diagnostika qilish.

Ijtimoiy kompetentlikka inson tomonidan ta'lim va kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali sotsializatsiya orqali erishish mumkinligi ta'kidlangan [Niyazbayeva, 2014. – C. 124]. Ijtimoiylashuv jarayoni doirasida talaba ijtimoiy asoslarga, atrofdagi voqelikka, sodir bo'layotgan voqealarni idrok etish va baholashda adekvatlikka o'z munosabatini shakllantiradi, shaxsning subyektivligi shakllanadi: faol, tanlangan, maqsadli faoliyat, shaxsning ma'naviy va jismoniy salohiyatini amalga

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim komponentlar va ularni o'rgatish usullari

Komponentlar	Tavsif	O'rgatish usullari	Natijalar
Empatiya	Boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga nisbatan muomala qilish.	– Rolli o'yinlar – Bahs-munozaralar – Simulyatsiyalar	Talabalar boshqalarning nuqtayi nazarini tushunishga o'rganadilar.
Tanqidiy fikrlash	Fikrlarni tahlil qilish, dalillarni sinchiklab o'rganish va qarorlar qabul qilishda mantiqiy yondashuv.	– Bahs-munozaralar – Analitik yozuvlar – Dars muhokamalari	Talabalar qarorlarni asoslashni va tahlil qilishni o'rganadilar.
Jamoadi ishlash	Birgalikda maqsadlarga erishish, hamkorlikda ishlash.	– Guruh loyihalari – Kollektiv mashg'ulotlar – Ijtimoiy tadbirlar	Talabalar jamoaviy ishni boshqarish va umumiy maqsadga erishishni o'rganadilar.
O'z-o'zini baholash	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish.	– O'z-o'zini baholash anketa va testlari – Refleksiya sessiyalari	Talabalar o'zini tahlil qilish va o'zgarishlar kiritish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Yuqoridagi omillar ta'siri ostida talabalarining ijtimoiy kompetentligi ularning ijtimoiy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga, ijtimoiy va kasbiy fazilatlarini egallash hamda takomillashtirishga yordam beradi, bu ularga ijtimoiy-siyosiy

jarayonlarda eng muvaffaqiyatli harakat qilish, raqobatbardosh mutaxassis bo'lish, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli hamkorlik qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, bandlik xizmati organlari bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar, shu bilan shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi parametrlarni hisobga olgan holda, talabalarining ijtimoiy kompetentligini tarkibiy qismlari motivatsiya va qadriyatlar (yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasi, munosabati, dunyoqarashi), mazmuni (ya'ni talabaning ijtimoiy bilimlari), ijtimoiy ko'nikmalar va malakalariga aloqalari bo'ladi.

Talabalar juda keng ijtimoiy bilim, ko'nikma va bilimlarga ega shaxs sifatida o'zini namoyon etishga moslashgan bo'lib, ularda o'z 'zini tahlil qilish umkoniyatlari past miqdordagi ko'rsatkichga ega. Shu ma'noda kasbiy fanlar bo'yicha bilim olishdan tashqari, talaba "Boshqaruv psixologiyasi", "Kasbiy psixologiya", "Odob-axloq qoidalari" va boshqa fanlarni o'rganadi. Shunday qilib, bo'lajak mutaxassis atrof-muhit, ijtimoiy guruhlar, madaniyatlararo aloqa mexanizmlari bilan muvaffaqiyatli ijtimoiy o'zaro ta'sir o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi.

Natijada shaxsning shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirish, o'z sa'y-harakatlarini jamoaning sa'y-harakatlari bilan bog'lash qobiliyati bo'lishi kerak, ya'ni belgilangan maqsadlarga erishish uchun innovatsion hamkorlikni

yo'lga qo'yishi lozim [Рожков, 2007. – C. 312]. Teskari jarayon – bu shaxsning qadriyatlari va bilimlari, talabalarining imkoniyatlari va uning haqiqiy ijtimoiy mavqei o'rtasida

oshirish, ya'ni talabaning ijtimoiy kompetentligi shakllanadi. Ushbu jarayon qanchalik muvaffaqiyatli o'tganiga qarab, talaba o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini qanchalik to'liq anglay olishi, ijtimoiy yetuk bo'lib, jamiyat uchun foydali bo'lishi, ya'ni o'zini o'zi anglash uchun qulay sharoit yaratishi aniq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiylashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi shaxslarda nafaqat tabiiy fe'l-atvorning mavjudligiga, balki ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishi uchun amaldagi xatti-harakatlar sodir bo'lishiga ham bog'liq. Talabalarda ijtimoiy kompetentlik jarayon sifatida takomillashib boradi va unga erishishda o'quv jarayoni doirasida amalga oshiriladi.

Talabalarining ma'naviy va ijtimoiy shakllanishi – moddiy va madaniy qadriyatlar, meyorlar, qoidalar, munosabatlarning tashuvchisi makro-mezomikroiijtimoiy muhit, o'qitish va ta'lim faoliyati, axborot-texnik muhit, ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri talabaning dunyoqarashi kabi omillarning ta'siri bilan belgilanadi.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim komponentlar va ularni o'rgatish usullari

nomuvofiqlik mavjud bo'lganda, ijtimoiy qobiliyatsizlik kuzatiladi. Qobiliyatsizlik qadriyat shakllanmaganida, oila, jamoa, jamiyat, davlat, mamlakat hayotiga befarqlikda namoyon bo'ladi; o'zaro ish jarayonida ishlay olmaslikda, ya'ni talaba aniqrog'i mavjud bo'lgan ijtimoiy imkoniyatlardan qanday foydalanishni aniq bilmaydi.

Shunday qilib, talabaning ijtimoiy kompetentligi ko'p funksional bo'lib, ularning hayotning turli sohalarida ijtimoiy rollarni samarali bajarishini anglatadi. Bu funksiyalarning asosiy qayidagilardan iborat:

- amaliy hayotda ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni amalga oshirish;
- shaxslar va ijtimoiy kichik guruhlar, institutlar, davlat va jamiyat bilan o'zaro aloqada moslashuvlar;
- jamoaga yoki ijtimoiy guruhga qo'shilish;
- ijtimoiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirish;
- talabaning haqiqiy bilim va ko'nikmalariga mos keladigan ijtimoiy mavqega ega bo'lishi;
- rolli xatti-harakatlar va ijtimoiy-madaniy me'yorlarni o'zlashtirish.

OTMning o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari qayidagilardan iborat:

1) o'quv jarayoni-o'qitish maqsadi kasbni o'zlashtirish va asosiy ijtimoiy rollarni bajarishda ijtimoiy bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish bo'lgan o'quv kurslarining o'quv dasturlariga kirish; talabalarining ijtimoiy-iqtisodiy va me'yoriyhuquqiy tayyorgarligi; ish odob-axloq qoidalari va pedagogika, psixologiya asoslarini bilish;

2) auditoriyadan tashqari ishlar – talabalarining oilaviy, kasbiy, ijtimoiy funktsiyalarini o'zlashtirishga qaratilgan qiziqqan to'garaklari kabi darsdan tashqari ishlarning bunday shakllarini izlash va sinovdan o'tkazish;

3) talabalarining qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini tizimli diagnostikasi.

Shunday qilib, talabalarining ijtimoiy kompetentligi talabalarining professional faoliyatga tayyorligini anglatadi: ish faoliyati, odob-axloq qoidalarini bilish; kasbiy martaba rejalashtirish asoslariga ega bo'lish, ish qidirish ma'lumotlaridan foydalanish; mehnat faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslarini, xodimlarning ish haqini tashkil etish va qo'llash usullarini bilish; reklama uchun marketing va o'z-o'zini marketing ko'nikmalariga ega bo'lish; o'z oilasini yaratishga tayyorlik: oila qonunchiligi va nikoh hamda oilaviy munosabatlar psixologiyasini bilish; bolalarni tarbiyalashda pedagogik madaniyat asoslari; uy xo'jaligini yuritish ko'nikmalari; mamlakat fuqarosi bo'lishga tayyorlik: ijtimoiy institutlar va tuzilmalar, ijtimoiy guruhlar, ularning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, roli xatti-harakatlar to'g'risida bilim.

Talabalarining ijtimoiy kompetentligi tarkibiga quyidagilar kiradi: ijtimoiy bilimlar, ijtimoiy va kasbiy faoliyatning ijtimoiy texnologiyalariga ega bo'lish, ya'ni bu ijtimoiy ko'nikma va malakalar. Talabalarda operatsion funksiyalarni shakllantirish samaradorligi shaxsning aniq qadriyat munosabatlari, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi shaxsning hayotiy strategiyalari mavjudligiga bog'liq.

Natijada talabaning shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirish, o'z sa'y-harakatlarini jamoaning sa'y-harakatlari bilan bog'lash, ya'ni maqsadlariga erishish uchun boshqa shaxslar bilan hamkorlik qilish qobiliyati bo'lishi kerak.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ijtimoiy moslashuv muhim omildir. Ijtimoiy moslashuv, o'z navbatida, ijtimoiy muhit talablariga talabalarining munosabat bildirishidir. Talabalar OTM sharoiti, akademik o'zlashtirish muhiti, turli transformatsiya vaziyatlarida "Men" konsepsiyasi ostida harakatlanishi isbot talab qilmas haqiqatdir. Shuning uchun

"Men" konsepsiyasining mohiyatini alohida tahlil qilishga urindik. Manbalarda "Men" konsepsiyasining tuzilishi quyidagisha ajratiladi:

- 1) anglash-o'zini bilish, anglash;
- 2) his etish-o'zini baholash, harakatlarini taftish qilish;
- 3) xulq-atvor shakllanishi-o'ziga shaxsiy, tahliliy munosabatdan tashkil topgan.

Ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv o'zaro shambarsas bog'liq jarayonlar bo'lib, shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati yaxlitligini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, odatda, umumiy (ruhiy, aqliy, jismoniy, ijtimoiy) rivojlanish bilan, moslashuv esa, yangi sharoit, muhit, vaziyatda muloqot qilish va faoliyatni tashkil etish bilan belgilanadi. Talabalar "Men"ni barqaror tahlil qilishning pedagogik-psixologik tuzilishiga e'tibor qaratish kerakligi amaliyotda namoyon bo'ldi. Buning ushuni "Men" konsepsiyasining tuzilishiga murojaat qildik.


Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv hamda transformativ sharoitga moslashuv va faoliyatli individuallashuv o'rtasida muvozanat barqaror shakllangandagina amalga oshishi mumkin. Bu ijtimoiy yo'nalgan jarayon uch asosiy pedagogik-psixologik sohada amalga oshadi:

1. Talabalar jalb etilgan faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljall olish.
2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.
3. Shaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

S.L.Rubinshteyn shaxs tuzilishini quyidagisha tasniflaydi:

- qobiliyat; – temperament; – xarakter; – iroda; – hissiyotlar; – motivatsiya; – ijtimoiy qadriyat (ustanovka)lar [Raxmanova, 2023].

SHAXSNING TUZILISHI



Tahlil va natijalar. Har doim ham ijtimoiy passiv talabalarining ma'lum bir jamoaga qo'shilib ketishi oson bo'lmaydi. Aksincha, u yoki bu ta'sirlar doirasida talabalar hayotida yuz beradigan to'siqlar dezadaptatsiya jarayonini yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda amaliyotda bu kabi ijtimoiylashuv muammolarini bartaraf etishning yaxlit uslublari mavjud emas. Chunki bu muammo talaba hayotining turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu vaziyatda tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni inobatga olish zarur. Amaliy psixologiyada dezadaptatsiyaning oldini olish va uni bartaraf etishda quyidagi tartibda ish olib borish yo'lga qo'yilgan bo'lmog'i: – yashayotgan ijtimoiy muhit o'rganiladi, ma'lumotlar yig'iladi; – mavjud ichki qarshilik mazmuni va

xarakter o'rganiladi; – moslashuvga qarshi omillar aniqlanadi, jamlanadi; – yosh davrlarga ko'ra psixofizik rivojlanish ko'rsatkichlari maxsus testlar orqali o'rganiladi; – natijalardan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik korreksiya ishlari rejalashtiriladi hamda hamkorlar belgilanadi.

Mazkur ish reja va hamkorlik maqsadli tuzilib, tegishli mashg'ulotlar tashkil etilsa, talabada hayotiy motivatsiya kuchayadi, atrofdagilarga ijobiy munosabat hamda yangiliklarga qiziqish hissi paydo bo'ladi. Z.Freyd taviylari asosida moslashuv jarayonining ikki darajasini farqlash mumkin:

- 1) adaptatsiya;
- 2) dezadaptatsiya.

Yangi sharoitga va axborotlarni o'zlashtirishga moslashuv shaxs va muhitning o'zaro ta'sir maydoni yuzaga kelganda amalga oshadi. Shaxs-talaba va muhit o'rtasidagi munosabat-ta'sir yuzaga kelmasa, deadaptatsiya amalga oshadi. Ijtimoiy ta'sirlarga har bir talaba jinsi, yoshiga muvofiq hamda hayotiy tajribasi asosida javob beradi. Bizningcha, har bir inson hayotda ushraydigan to'siqlar, qiyinchiliklarni engish uchun mos yo'llarni va hal etishning xos usullarini qo'llaganligi sababli, moslashuvchanlikni usullar va hayotiy tajribalar tizimi deya talqin etish mumkin. Bunday xulosaga kelish ushuni A.A.Reanning ijtimoiy moslashuvga ichki va tashqi ko'rsatkichlar bog'liqligi bilan yondashish lozim degan tavsiyasi asos bo'ldi. Unga ko'ra: "... ichki ko'rsatkichlarni psixosotsional mo'tadillik, qoniqish, qulaylik mavjudligi hamda stress, xavf-xatar mavjud emasligi holatlari tashkil etadi. Tashqi ko'rsatkichlarni muhit qonun-qoidalari, talablari, jamiyat me'yorlari qamrab oladi". Talabalarning

ijtimoiylashuvi psixologik ildizga ega bo'lib, pedagogik ta'sirdan oziqlanadi, rivojlanadi, qayta quriladi. Shuning ushuni bu yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar mazmunida psixologik jarayonlarning xususiyatlarini o'rganish va ularning ta'siriga ta'yanish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkin, talabalar juda keng ijtimoiy bilim, ko'nikma va bilimlarga ega shaxs sifatida o'zini namoyon etishga moslahgan bo'lib, ularda o'z 'zini tahlil qilish umkoniyatlari past miqdordagi ko'rsatkichga ega. Shuningdek, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv hamda transformativ sharoitga moslashuv va faoliyatli individuallashtirish o'rtasida muvozanat barqaror shakllangandagina amalga oshishi mumkin. Natijada shaxsning shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirish, o'z sa'y-harakatlarini jamoaning sa'y-harakatlari bilan bog'lash qobiliyati bo'lishi kerak, ya'ni belgilangan maqsadlarga erishish uchun innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Sharq, 2020.
2. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006. – 186 b.
3. Белкин А.С. Виталенное образование. Гипотеза. Концепция. Реализация. – Екатеринбург, 2000. – 120 с.
4. "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish" moduli bo'yicha O'QUV-USLUBIY MAJMUA. – Buxoro, 2024.
5. Ниязбаева Н.Н. Экзистенциальные ценности образования // Монография. – Москва: Перо, 2014. – 124 с.
6. Рахманова М. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari. – T., 2023. May.
7. Рожков М.И. Юногики. Педагогическое обеспечение работы с молодежью. – Ярославль: ЯГПУ им. К.Д.Ушинского, 2007. – 312 с.